



DERMOTONAL
PREPARATINI QO'LLASH BO'YICHA YO'RIQNOMA

TARKIBI VA CHIQARILISH SHAKLI

Tabiiy o'simliklar ekstraktidan tarkib topgan o'ziga xos hidli, jigarrang tusdagi (biroz cho'kma va xira ko'rinish bo'lishi mumkin), suyuqlik qiyom bo'lib, himoyalovchi plombali 100 ml hajmdagi asl flakonlarda qadoqlangan: (1) – himoyalovchi golografik yorliqli karton o'ramlar, (2) – me'yorlash qoshig'i – dozator, (3) – qo'llash bo'yicha yo'riqnomalar.

Dorivor tizimgul ekstrakti (Verbéna officinalis)	100 ml
Qizilpoycha ekstrakti (Hypéricum perforatum)	10 mg.
Mingyaproq ekstrakti (Achilléa millefólium)	10 mg.
Moychechak ekstrakti (Matricária)	10 mg.
Rangdor binafsha ekstrakti (Viola tricolor)	10 mg.
<i>Yordamchi moddalar: 100 ml. gacha tozalangan suv, shakar kukuni, 95 % li etil spiriti</i>	

PREPARATNING TA'SIRI

- Mikroblarga qarshi;
- Allergiyaga qarshi;
- Zumburug'larga qarshi;
- Biriktiruvchi, qoplovchi va singuvchi;
- Terini tetiklashtiradi va yumshatadi.

QO'LLANILISHI

Dermotonal:

- Yuz teri yog' bezlari funksiyasining zo'rayishi;
- Toshma, shirincha (ekssudativ diatez, teri qichimasi);
- Dermatitlar, trofik yara, furunkulalar, abscesslar (teri yiring kasalliklari, ekzema);
- Flegmonoz husnbuzarlar;
- Keratodermiya, trixofitiya;
- Endometrit, endometrioz, fibromal qon ketish;
- Bachadon, qin va servikal kanal kasalliklari (bachadon bo'yni eroziyasi)da, davolash va profilaktikasida qo'llaniladi.

QO'LLASH MUMKIN BO'LМАGAN HOLATLAR

Preparatning ba'zi tarkibiy qismlariga yakka tarzdagi chidamsizlik.

QO'LLASH USULI VA DOZALARI

Qabul qilish kursi yakka tarzda belgilinadi:

Vannochkalar:	0-3 yoshgacha go'daklarga 1 choy qoshiq qiyom +0,7 l. suv 4-14 yoshgacha bolalar 2 choy qoshiq qiyom + 0,7 l. suv Kattalarga 1:6 taqsimotda aralashma
---------------	---

Malham qo'yish:	Qiyom bilan namlangan tamponni bevosita teriga qo'yish kerak.
Chayish:	Og'iz bo'shlig'ida – 100 ml. suvga 1 choy qoshiq qiyom Ginekologiyada – 200 ml. suvga 1 choy qoshiq qiyom

Preparat faqat tashqari va maxalliy qo'llash uchun mo'ljallangan

MAXSUS KURSATMA

Preparatni qullashdan oldin, chayqating.

NOJO'YA TA'SIRI

Preparatning ba'zi tarkibiy qismlariga ta'sirchanlik holatlarida allergik reaksiyalar ehtimoli mavjud.

PREPARATNING ME'YORDAN ORTIQ QABUL QILINISHI

Preparatini me'yordan ortiq qabul qilinishi oqibatida paydo bo'ladigan noxush holatlar haqida xabar qilinmagan.

BOSHQA PREPARATLAR BILAN O'ZARO TA'SIRI

Boshqa dori vositalari bilan qo'llanilganda nojo'ya ta'siri kuzatilmagan.

SAQLASH SHAROITI VA YAROQLILIK MUDDATI

Preparat bolalar qo'li yetmaydigan, yorug'likdan himoyalangan joyda +2°С dan +25°С gacha haroratda saqlanishi lozim.

Saqlanish muddati – 24 oy.

Manzil: 1000011, Toshkent viloyati, Toshkent tumani,

Tel.: +998 (95) 195-59-00

E-mail: info@anfa.uz, www.anfa.uz